

DAVLAT HOKIMIYATI BOSHQARUV ORGANLARI OCHIQLIGINI TA'MINLASHDA AXBOROT XIZMATI FAOLIYATINING O'RNINI

Odilova Dilorom Husanovna

O'zJOKU magistranti

***Annotatsiya.** Zamonaviy dunyomizda, davlat hokimiyati organlari faoliyati to'g'risida ma'lumot olish huquqi insonning asosiy va ajralmas huquqlaridan biridir. Shuni ta'kidlash kerakki, jamoat ahamiyatiga ega bo'lgan ma'lumotlarga erkin kirishni ta'minlash va davlat hokimiyati organlarining axborot ochiqligi huquqiy davlat faoliyatining eng muhim shartlari hisoblanadi. Xususan, ushbu maqolani yozishda rasmiy va ilmiy adabiyotlarda keltirilgan fikrlar tahlil qilinib mavjud muammo yuzasidan tegishli taklif va tavsiyalar keltiriladi.*

***Kalit so'zlar:** PR, jamoatchilik bilan aloqalar, davlat organlari, PR vazifalari.*

***Abstract.** In our modern world, the right to receive information about the activities of state authorities is one of the basic and inalienable human rights. It should be noted that providing free access to information of public importance and information openness of state authorities are the most important conditions for the operation of a legal state. In particular, when writing this article, the opinions presented in the official and scientific literature are analyzed, and appropriate suggestions and recommendations are made regarding the existing problem.*

***Key words:** PR, public relations, state bodies, PR tasks.*

KIRISH

Mamlakatimizdagi demokratik rivojlanish jarayoni, siyosiy va huquqiy yangilanish jarayoni shu qadar shiddat bilan kechmoqdaki, har yili kamida 10 ga yaqin qonun va qarorlar ishlab chiqilmoqda, ayrimlariga o'zgartirishlar kiritilmoqda. Bu esa ilmiy tadqiqotlarni yangi manbaalar bilan doimiy to'ldirib borish zaruriyatini oshiradi. Mazkur maqolada ochiqlik sohasiga oid barcha huquqiy hujjatlarni davrlarga bo'lgan holda tahlil qiladi va ilmiy tadqiqotlarda foydalanish uchun taqdim etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

“**Ochiqlik**” mazmunan “*oshkoralik*”, “*ravshanlik*” degan ma'nolarda tushunilib, zamonaviy tilda “**transparent**”(fransuzcha “*transparent*”), ya'ni “*shaffof*”, “*tiniq*” kabi ma'nolarda qo'llaniladi, “**oshkoralik**” esa “*oshkora xususiyatga egalik, ochiq-oydinlik*”[1] yoki “*konstitutsiyaviy-huquqiy tartib-*

taomillarning eng yuqori darajada ochiqligi va ular haqida aholining keng xabardor qilinishi”[2] sifatida ifodalanadi.

Shuningdek, ochiqlik tushunchasi davlat organlari yoki xususiy sektor faoliyati to‘g‘risidagi ishonchli va o‘z vaqtida axborot olish imkoniyati, demokratiya va bozor iqtisodiyoti uchun zarur bo‘lgan hisob berish tamoyilining muhim tarkibiy qismi yoki fuqarolarning davlat organlari qabul qilgan qarorlar bilan tanishish, baholash imkoniyati va davlat organlarining fuqarolarga hisobot berishi yoxud davlat boshqaruvida jamoatchilikning ko‘proq ishtirok etishiga mo‘ljal olishlik sifatida talqin qilinadi. Shu o‘rinda, “ochiqlik” va “shaffoflik” tushunchalarining farqiga ham to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiq. Xususan, Y.A. Nisnevichning fikricha “ochiqlik kommunikativ xususiyatga ega bo‘lgan hodisa bo‘lib, uning mohiyati jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy kuchlarining hokimiyatning barcha tarmoqlariga qonuniy kirib borishi va ta’sir ko‘rsatishi, shaffoflik esa fuqarolar va ularning mustaqil birlashmalari tomonidan davlat organlari hamda institutlari faoliyati to‘g‘risidagi turli shakldagi ishonchli axborotlardan qonunchilik bilan mustahkamlangan va kafolatlangan tarzda maksimal foydalanish imkoniyatining mavjudligi” hisoblanadi[3].

TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMALAR

Sotsiolog olimlar L.A. Krivonosova va Ye.A. Kleymenov “*ochiqlik*–ijtimoiy kommunikativ xarakterni aks ettirishini, *shaffoflik* esa ochiqlikning tarkibiy qismi va uning shakllanishining yakuniy bosqichi” ekanligini[4] ta’kidlaydi.

I.A. Juravleva o‘z tadqiqot ishida “*shaffoflik*–davlat organlari tomonidan qabul qilingan qarorlarning fuqarolar tanishishi va baholashi uchun qulayligi hamda davlat hokimiyati organlarining jamiyat oldida to‘g‘ridan-to‘g‘ri hisobdorligini nazarda tutsa, *ochiqlik*–bu davlat boshqaruvidajamiyatning maksimal darajada ishtirok etishiga yo‘naltirilganligi”[5] deb ta’riflaydi.

T.A.Kulakovaning fikricha, “shaffoflik fuqarolarning davlat organlari faoliyati to‘g‘risida ishonchli va dolzarb axborotlarni o‘z vaqtida olish imkoniyati, ochiqlik esa Hukumat qarorlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda fuqarolarning fikrini inobatga olish, jamoatchilikning qarorlar qabul qilish jarayonlarida ishtirok eta olishi, qarorlarning natijadorligini nazorat qilish va amalga oshirish kafolati”[6] hisoblanadi.

E.N. Tovanchovanning ta’kidlashicha, “shaffoflik–davlat organlari faoliyatini tizimli yoritish, davlat siyosatining maqsadlari, mazmuni va amalga oshirish mexanizmlarini tushuntirishni, ochiqlik esa–davlat organlari tomonidan fuqarolarning o‘z faoliyati to‘g‘risidagi axborotdan moneliksiz foydalana olishi va qarorlar qabul qilish jarayonlarining barcha bosqichlarida ularga sharoitlar yaratishni ifoydalaydi”[7].

T.M.Rezerning fikricha, “shaffoflik–davlat organlari faoliyatini muntazam ravishda yoritish, davlat siyosati ijrosini, mazmuni, maqsadlari va mexanizmlarini sharhlash bilan, ochiqlik esa hokimiyat organlari tomonidan fuqarolarga qarorlar qabul qilish jarayonlarida ishtirok etish va ijro hokimiyati faoliyati to‘g‘risida axborot olish uchun shart-sharoitlar yaratilganligi bilan ifodalanadi”[8].

Kanadalik olim Don Tapskott “ochiqlik hamkorlik vositasi sifatida fuqarolarga zarur axborotni izlab topish va unga muvofiq biror masala yuzasidan to‘g‘ri qaror qabul qilishda yordam beradi”[9] deb ta’kidlaydi.

Amerikalik olim J.Foks “shaffoflik” tushunchasini “hisobdorlik” tushunchasiga bog‘liq holda ko‘rib, shaffoflik hisobdorlikni keltirib chiqarishini, xaqiqat ko‘pincha adolatga yetaklashini isbotlashga harakat qiladi, shaffoflikka kuchli institutlarning hatti-harakatlarini jamoat nazorati ostida va hisobdorlik asosida majburan o‘zgartirishga vakolat[10] sifatida qaraydi.

Yana bir amerikalik olim A.Florini *oshkoralik* va *shaffoflik*ni yaxlit holda ko‘rib, ularni biror bir tarzda taqiqlanmagan, hukumat xujjatlarining barchasi ular bilan tanishishni istagan har bir fuqaro uchun ochiqligi, o‘tkaziladigan yig‘ilishlar ham hamisha oshkoraligi” sifatida ta’riflaydi.

Milliy olimlarimizdan Sh.M. Asyanov, F.X. Bakayeva va D.G. Axrarova “hokimiyatning ochiqligi ijtimoiy xabardorlik tusiga ega bo‘lsa, shaffoflik esa mamlakatdagi boshqaruv jarayonlarini optimallashtirishga xizmat qiladi”, degan ilmiy xulosaga keladi

O‘rganishlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, “ochiqlik” va “shaffoflik” tushunchalarining mazmun-mohiyati bo‘yicha olimlar tomonidan turli fikrlar bildirilgan. Shu nuqtai nazardan rus olimlari I.A.Damm, Ye.A.Akunchenko hamda N.V.Shedrinlarning quyidagi fikrlarini qo‘llab-quvvatlaymiz: “davlat organlariga nisbatan aksariyat hollarda “ochiqlik” tushunchasidan foydalaniladi, bu davlat organlarining bajaradigan funksiyalari va mualliflik pozitsiyalariga qarab turli mezonlar va xususiyatlar bilan to‘ldiriladi. Bunda axborotning ochiqligi faqat oshkoralikning tarkibiy qismidir. Umumiy kategoriya sifatida ochiqlik o‘z ichiga nafaqat axborotning ochiqligini, balki davlat organlari faoliyatiga fuqarolarni jalb qilishni ham oladi. “Foydalana olish” tushunchasi fuqarolar va boshqa shaxslarning davlat organlari faoliyati to‘g‘risidagi axborotni moneliksiz olish imkoniyatini bildirish uchun qo‘llaniladi.

“**Oshkoralik**” tushunchasi sud hokimiyati organlarining faoliyatiga, shuningdek, ommaviy axborot vositalarining davlat va mahalliy organlarning faoliyati to‘g‘risidagi axborotni olish hamda tarqatish kafolatlarini tavsiflashga nisbatan qo‘llaniladi.

“**Shaffoflik**” asosan mualliflar tomonidan davlat organlari faoliyati to‘g‘risida axborotdan foydalana olishga tenglashtirilsa, “transparentlik” xorijiy tadqiqotchilar ta’siridan ilhomlangan holda ko‘proq ijtimoiy-siyosiy ma’noda ishlatiladi.

Siyosatshunoslar hamda sotsiologlarning fikricha, “transparentlik” o‘z ichiga ochiqlik, shaffoflik va foydalana olishni kiritadi. Ushbu atama ingliz tilidan so‘zma-so‘z tarjima qilinganida “shaffoflik” deb tarjima qilinishini hisobga olib, “transparentlik”ni **tor** (*davlat organlari faoliyati to‘g‘risidagi axborotdan foydalana olish*) va **keng** (“ochiqlik” tushunchasining ijtimoiy-siyosiy muqobili) ma’nolarga ajratish kerak”.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bizningcha davlat organlariga nisbatan “ochiqlik” tushunchasidan foydalanish o‘rinlidir. “Ochiqlik” axborotdan foydalanuvchilarning davlat organlari faoliyati to‘g‘risida axborotdan foydalanishini va axborot olish huquqining kafolatlarini ta’minlashni nazarda tutadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, biz demokratik deb ataladigan va shu shaklga mos kelishga intilayotgan davlatda yashayapmiz; demokratiyaning asosiy tamoyillaridan biri - davlatning xalqqa xizmat qilishi, bu davlatni boshqarishda butun xalqning ishtirokini taqozo etadi; insonning davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish huquqini to‘liq amalga oshirish “ochiq hokimiyat” tizimini yaratish orqaligina mumkin. Shunday ekan, demokratiya g‘oyalariga erishish va “foydali davlat” tamoyilini hayotga tatbiq etish uchun ochiq hukumat tizimini rivojlantirishimiz zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ijtimoiy-siyosiy terminlarning qisqacha izohli lug‘ati. –Toshkent: «Shaffof» nashriyoti, 2021. –B.173. (Brief explanatory dictionary of socio-political terms. –Tashkent: «Shaffof» publisher, 2021. –p.173).
2. Konstitutsiyaviy huquq. Ensiklopedik lug‘at//Elektron manba: <https://lex.uz/dictionary?letter=%u041e>.(Constitutional law. encyclopedic Dictionary).
3. Charles A. Dana. Transparency social science//Электрон манба: <https://www.britannica.com/topic/transparency-government>.
4. Angel Gurria, OECD Secretary-General. Openness and Transparency –Pillars for Democracy, Trust and Progress//Elektron manba: <https://www.oecd.org/corruption/opennessandtransparency-pillarsfordemocracymtrustandprogress.htm>.
5. Omonov B. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyati ochiqligini ta’minlash mexanizmlari. O‘quv-amaliy qo‘llanma. –Toshkent,

2016. –B.72. (Omonov B. Mechanisms for ensuring publicity of the activities of public authorities and administration. Educational and practical guide. – Tashkent, 2016. –p.72.).
6. Nisnevich YU.A. Gosudarstvo XXI veka: tendensii i problemy razvitiya: monografiya. –M.: KNORUS, 2012. –S.177//Elektron manba:<https://publications.hse.ru/mirror/pubs/share/folder/gm14riuc51/direct/60725685.pdf>.(Nisnevich Yu.A. State of the 21st century: trends and problems of development: monograph. –M.: KNORUS, 2012. –p.177).
7. Krivonosova L.A., Kleymenov YE.A. Sotsialnaya napravlenost informatsionnoy otkrytosti gosudarstvennoy vlasti: monografiya. –Xabarovsk: DVIU-filial RANXiGS, 2016 –S.16//Elektron manba: https://branch.dev.ranepa.ru/dviu/upload/iblock/b81/Krivonosova_L_A_Kleimenov_E_A_Sotsialnaya_napravlenost_informatsionnoi_otkrytosti.pdf. (Krivonosova L.A., Kleymenov E.A. Social orientation of informational openness of state power: monograph. –Khabarovsk, 2016. –p.16).
8. Juravleva I.A. Sovershenstvovaniye mexanizma otkrytosti deyatelnosti organov ispolnitelnoy vlasti. Avtoreferat dissertatsii na soiskaniye uchenoy stepeni kandidata ekonomicheskix nauk. Moskva, 2013–S.11//Elektron manba: <https://www.dissercat.com/content/sovershenstvovanie-mekhanizma-otkrytosti-deyatelnosti-organov-ispolnitelnoi-vlasti>.(Zhuravleva I.A. Improving the mechanism of openness of activities of executive authorities. Abstract of the dissertation for the degree of candidate of economic sciences. Moscow, 2013 –p.11).
9. Kulakova T.A. Otkrytost i prozrachnost organov gosudarstvennoy vlasti kak mexanizmy sotsialno-politicheskix innovatsiy v xode administrativnoy reformy. Izdatelstvo «Gramota». ISSN 1997-292X. No 8 (14) 2011, chast 4. – S.118 // Elektron manba: https://www.gramota.net/articles/issn_1997-292X_2011_8-4_31.pdf.(Kulakova T.A. Openness and transparency of public authorities as mechanisms for socio-political innovations in the course of administrative reform. Publishing house «Gramota». ISSN 1997-292X. No 8 (14) 2011, part 4. –p.118).